



IJODKOR SHAXSI VA PSIXOPOETIKA

Axmedova Aziza Komilovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,
f.f.f.d, Ph.D., Jahon adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi
eternalworldlanguages@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15532032>

Annotatsiya. Maqola filologiyani muhim tushunchalaridan biri psixopoetikani zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ijodkor shaxsi va ruhiyatining ilmiy tadqiq etilishi sabablari asoslab berilgan. Mazkur masala evropatologiya yo'nalishida faol tadqiq etilayotganligi zamonaviy ilmiy ishlar misolida izohlangan.

Kalit so'zlar: psixopoetika, evropatologiya, psixologik tahlil metodlari, ijodkor shaxsi

Psixopoetika adabiyotshunoslik va ruhiyat ilmi kesishadigan poetika yo'nalish bo'lib, badiiy qonuniyatlarni nafaqat estetik, balki ruhiy-biologik mezonlar orqali ham tadqiq etishga ixtisoslashgan. Ijodkor shaxsini ilmiy o'rganishga xizmat qiladigan qator metodlar, ilmiy maktablar, oqimlar mavjud bo'lsa-da, psixopoetika mazkur vazifani psixologiya va psixiatriyaga oid tushunchalar, atamalar, ilmiy xulosalarga tayangan holda tadqiq etishi bilan ajralib turadi. Badiiy asar mohiyatini talqin qilishda ijodkor ruhiyati tahliliga o'tish kerakmi? Aynan shu savol psixopoetika yo'nalishidagi ko'plab tadqiqotlarga zamin hozirlagan. Emil Enneken, A.Potebnya, D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, N.A. Rubakin, Z.Freyd, Karl Yung va boshqa olimlarning qarashlari muallif shaxsi ruhiyatini chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi. Yozuvchi shaxsi ruhiyatini o'rganish nafaqat muayyan adibning ijodiy o'ziga xosligini, shuningdek, san'at psixologiyasini anglashga zamin hozirlaydi.

Ijodkorning badiiy obraz yaratish mahoratiga nafaqat ijtimoiy-estetik ideallari shuningdek, yozuvchining psixotipi ham salmoqli darajada ta'sir qiladiki, mazkur jihatni inobatga olish badiiy obrazning chuqur idrok etishga, obyektiv talqin qilishga imkoniyat beradi.

Evropatologiya buyuk shaxslar ruhiyatini ijodiy faoliyati bilan bog'liq ravishda o'rganadigan yo'nalish. Mazkur yo'nalishda Zigmund Freyd, Karl Yung kabi psixiatr olimlarning qarashlari poydevor bo'lgan. Bunda Z.Freydning sublimatsiya haqidagi qarashlari, ijodni bir xastalik sifatida baholab, ijodkor shaxsini faoliyati orqali ong osti istaklaridan forig' bo'lishini asoslab berganligi san'atning talqinida uzoq muddat ahamiyatga ega bo'lgan. Ya'ni, Freyd san'at asariga ijodkordagi nevrozning sublimatsiyasi sifatida qaragan. Umuman olganda, qator, psixoanalitiklarning san'atga patologik hodisa deb






yondashganliklari sabab ehtimol san'atshunoslar, adabiyotshunoslar orasida ushbu nazariya keng qo'llab quvvatlanmagan. Sublimatsiya nazariyasi 1950-yillargacha psixoanalizda hukmron bo'ldi, biroq "ego psixologiyasi kashf etilishi bilan nevrotik san'atkor g'oyalari psixoanalizda barham topdi", deb yozadi Jon Frederickson maqolasida, "shunday qilib san'at asari kasallikning emas, balki, kuchli, sog'lom egoning mahsuli sifatida ko'riladigan bo'ldi. Frederikson xulosa qilishicha, san'atning mifologik sinoat emas, kreativlik sifatida qabul qilinayotganligi uning demokratizatsiyasidan dalolat beradi.

Nega aynan yozuvchilarning ruhiy olami ilmiy o'rganilishi kerak degan savolga psixiatr olim E. Krechmer quyidagicha javob beradi: "Ijodkorlik bo'yicha tadqiqotlarda doimo shoirlar va umuman adabiy faol insonlarga ustunlik beriladi, va bu ularning boshqa ijodkorlar guruhlariga nisbatan ma'naviy ustunligidan emas, balki vaqt davomida saqlanib qolgan asl psixologik hujjatlarning o'ziga xos boyligi bilan izohlanadi, ular bizga shoirning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'zini ifoda etish usullarini beradi, shoirning yozish uslubi muallifning shaxsiyati bilan ancha sub'ektiv bog'langan va olimnikiga nisbatan osonroq talqin qilinadi, shuningdek rassom yoki musiqachining ifoda vositalariga nisbatan ancha tushunarliroqdir"

Ijodkorning poetik mahoratini ilmiy o'rganishda uning psixotipini ham hisobga olish chuqur tahlil imkoniyatlarini beradi. Xususan, markaziy qahramon obrazida muallifning ruhiyati albatta bo'y ko'rsatadi. Ushbu masalani I.O.Mazirka «Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы» nomli tadqiqotida tahlilga tortgan. Mazirka muallif va adabiy qahramonning o'zaro ruhiy jihatdan tig'iz aloqasi mavjudligini ta'kidlaydi hamda ijodkor shaxsining badiiy asardagi ifodasini lingvistik jihatdan o'rgangan. Mazirka badiiy obrazlarni shaxs strukturasi bo'yicha tahlil qilib, obrazlar ruhiyatida aks etgan biologik, ijtimoiy va biosotsial determinantlarni, xarakter aksentuatsiyasini qator asarlar, jumladan, Sinkler Lyuis romanlari misolida ham tadqiq etgan. Demak, psixopoetika yo'nalishi ijod psixologiyasiga oid yangi qarashlarni shakllantirmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Золотухина О.Б. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для стул. спец. / О.Б.Золотухина. - Гролно: ГрГУ, 2009. -179 с.
2. Есин, А.Б. Психологизм русской классической литературы : Книга для учителя / А.Б.Есин. - М.: Просвещение, 1988. - С. 55.
3. Беянин В. Введение в психиатрическое литературоведение. Verlag Otto Sagner, München. 1996. - 284 с.





4. Иезуитов А.Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – С. 30.
5. Выготский Л.С. Психология искусства. Ростов -на-Дону.: «Феникс», 1998, – 480 с.
6. Гиндин В.П. Психопатология в русской литературе. — М.: ПЕР СЭ, 2012.- 224 с.
7. Мазирка И.О. Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы. Дисс. ...док. филол. наук. –М.:2008.

